



Jizzax davlat
Pedagogika
Universiteti

TARIX FAKULTETI

HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
Журнал

№ 1

JOURNAL
2024



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

Bosh muharrir: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),
dotsent.tarix fakulteti dekani

Bosh muharrir Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,
o‘rinbosari: dotsent

Mas’ul kotib: Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Karimova. N.I

MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** _____ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. _____ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. _____ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz _____ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor _____ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. _____ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. _____ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. _____ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. _____ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. _____ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. _____ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. _____ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. _____ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. _____ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . _____ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o 'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. _____ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. _____ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. _____ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. _____ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. _____ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi _____ 100-105

TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID

**Ilmiy rahbar: J.O.Saidov – JDPU,
Umumiy tarix kafedrası o'qituvchisi.
Shukurova Maftuna Alisher qizi - JDPU,
Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sohasida o'quvchilarga samarali bilim berish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish afzalliklari keltirilgan hamda bu jarayonda yoshlarda milliy madaniyatni shakllantirish muhimligi haqida muallif o'z tahlillarini keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, ta'lim, gadjetlar, elektron qurilmalar, texnologiyalar, dasturlar, milliy ma'naviyati, qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье представлены преимущества использования цифровых технологий для предоставления студентам эффективных знаний в сфере образования, а также автор дает свой анализ о важности формирования национальной культуры среди молодежи в этом процессе.

Ключевые слова: Технологии, образование, гаджеты, электронные устройства, технологии, программы, национальная духовность, ценности.

Abstract: In this article, the advantages of using digital technologies to provide students with effective knowledge in the field of education are presented, and the author gives his analysis about the importance of forming national culture among young people in this process.

Key words: Technology, education, gadgets, electronic devices, technologies, programs, national spirituality, values.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni ta'lim sohasida joriy etish orqali bu soha faoliyati tubdan

o'zgarimoqda. Bu nafaqat ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki dars loyahasini taqdim etishdan tortib, to uni baholash hamda metodik usullarigacha ham yangilikliklarni o'z ichiga olmoqda. O'zbekiston ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar uning sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur masala davlat siyosatida ustuvor o'rin egallaydi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhiti orqali raqamli texnologiyalarni tadbiq etish ta'limni isloh qilish va uni nazorat qilish har tomonlama qulayliklar va imkoniyatlarni yaratib beradi. Ma'lumki raqamli texnologiyalar elektron hisoblash va ma'lumotlarni o'zgartirish bilan bog'liq barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Ularga gadjetlar, elektron qurilmalar, texnologiyalar, dasturlar va shu kabilarni misol qilishimiz mumkin. Analog texnologiyalar bilan taqqoslaganda, raqamli texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun ko'proq mos keladi va yuqori tezlikda hisoblashni ta'minlaydi. Bunday holda, ma'lumot imkon qadar aniq, buzilmasdan uzatiladi¹.

Bugungi ta'lim muhitida raqamli texnologiyalarning bir qancha sifatlarini sanab o'tamiz:

- Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda, ularni yanada boyitishda aniq ma'lumotlar va tushunchalarga ega bo'lish;

- Talabalar tomonidan dars jarayonida berilayotgan ma'lumotlarni eng so'nggi yangiliklar bilan taminlanganligini va uni tadbiq etish jarayonini nazorat qilish;

- Ta'lim jarayonida o'tilayotgan mavzuning nazariy qismidan amaliy qismiga o'tish jarayonida mavzuga oid eng so'nggi ma'lumotlarni hamda ularning yangilanishini tezkorlik va aniqlik bilan topishdagi imkoniyatlar;

- Bilim oluvchilarni dunyo jamiyati qiziqtirayotgan masalalar va mulohazalar bilan tanishib borish imkoniyatiga ega bo'lish;

- O'quv jarayonida zamonaviy auditoriyalarga, kerakli jihozlarga va imkoniyatlarga ega bo'lish kabilarni keltirishimiz mumkin².

¹ <https://muhoz.org/shaxsga-yonaltirilgan-talim-muhiti-orqali-raqamli-texnologiyal.html>

² <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-texnologiyalarni-inson-hayotidagi-o-rni-1>

Mamlakatimizda raqamli ta'lim sifati orqali o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mashg'ulot loyihalarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat, samarali suhbat olib borish, bahs-munozaralarda taktik ishtiroki, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Hozirgi kungacha tarixchi olimlarning ilmiy-nazariy bilimlarining saviyasi ular bajarayotgan ilmiy tadqiqotlarning sifatiga bevosita ta'sir qilishi tabiiy jarayon bo'lib qolmoqda. Insonning tafakkuri fikrlash asosida rivojlanadi. Fikrlash esa ma'lum bir tarixiy voqelikni tasavvur qilishga imkon beradigan qandaydir bir tarixiy dalilni o'rganish asosida yuz beradi³.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yilni "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinganligi bu jarayonni yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirishga katta asos yaratgan edi. O'tgan yillar mobaynida esa biz bu ustuvor vazifani amalga oshirib kelmoqdamiz. Yurtboshimizning: "Barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo'ldan borishimizga imkon beradi. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o'ynamoqda", deya qilgan murojaati sohaning rivojlanishiga e'tiborimizni yanada kuchaytiradi⁴.

Ta'lim amaliyotida IT-texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning kelgusida zamonga mos mutaxassislar bo'lib yetishishiga imkon beradi. Ular o'zlari tanlagan har bir sohada ilg'orlik va peshqadamlikka erishadilar. Tarix sohasidagi ta'lim jarayoniga 3D texnologiyalarni joriy etish ham dars samaradorligini oshirishga yordam beradi⁵. Mamlakatimizga ertangi kun qo'yadigan talablarga javob bera

³ Saidov, J., & Norqo'ziyev, S. (2023). Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari (Tarix va milliy g'oya fanlari misolida). *Журнал истории и общества*, (5).

⁴ 2020-yil 29-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://it-park.uz/index.php/uz/itpark/news/prezident-murojaati-itsohasini-va-it-parklarni-rivojlantirish-haqida>

⁵ Саидов, Дж. (2022). Madaniy meros obyektlarining 3 d modelini yaratishning ahamiyati (Jizzax vohasi misolida). *Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана*, 1(01), 34-37.

oladigan mutaxassislar kerak. Butun dunyoda aksariyat tarmoqlarni raqamlashtirish jarayoni ketayotgan hozirgi davrda o'quvchi yoshlarning raqamli texnologiyalar bo'yicha savodxonligi va amaliy layoqati juda muhim⁶. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, raqamlashtirish - davr talabi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash va kutilgan ijobiy natijalarga erishish uchun bir qator muhim omillar zarur. Bular:

- Ta'lim beruvchi ustozning raqamli muhitda fanoliyat yurita olish kompetentligi;

- Maktabning va, ayniqsa, sinf xonasining raqamli ta'lim uchun zarur bo'lgan jihozlar bilan ta'minlanganligi;

- O'quvchilarning raqamli muhitda faoliyat yurita olish savodxonligi;

- O'quvchilarning ta'limiy muloqot va faoliyat uchun shaxsiy raqamli gadjetlari mavjudligi;

- Raqamli ta'limning samaradorligi uchun darsda va darsdan tashqari beriladigan saboqlar mazmuni, mundarijasi va usullarining mavjudligi muhimdir⁷.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat⁸. Ta'limdan tashqari ishlarda yoshlarni kitob mutola qilishga davat etish, ularning kitoblardan foydalanib o'z ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy joylar, osori atiqalar, yodgorliklar ziyoratgohlar bilan tanishib, ularni o'rganishga talaba-yoshlarni jalb etish zarur. Tizimni faqatgina yangilash yoxud raqamli texnologiyalar bilan boyitibgina qolmay, unga milliylik ruhini jo etib, yoshlarimiz shuurini yoritishimiz darkor. O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib, ularga

⁶ <https://president.uz/oz/lists/view/6938>

⁷ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/02/22/digitization/>

⁸ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-milliy-tarixni-milliy-ruh-bilan-yaratish-kerak-aks-holda-uning-tarbiyaviy-tasiri-bulmayd>

do'stlik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, mardlik, samimiylik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, vazminlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, iymonlilik, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi. Bugungi kunda bularni yoshlar onggiga singdirish har bir ota-ona va tarbiyachi-murabbiylarning asosiy vazifalaridir.

Hozirgi kunda o'sib-ulg'ayotgan yoshlarni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va barkamol avlod qilib tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Bu ishni amalga oshirishda yoshlar ongi va ma'naviyatini ezgu g'oyalalar bilan kengaytirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy dunyosini mustahkamlash orqali yomon g'oyalarga nisbatan ma'naviyat to'g'onini barpo etishda bizga qadimdan to shu davrgacha Markaziy Osiyodagi ma'naviy-ma'rifiy meroslardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi⁹.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bilimga intilayotgan va o'z ustida ishlayotgan yoshlar o'z maqsadlari erishishi uchun barcha sharoit mavjud. Yosh avlodni hayotga qat'iy e'tiqod va milliylik ruhida tarbiyalash yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlardan biri sifatida alohida dolzarblik kasb etadi. Qanchalik yuksaklikka intilmaylik, jahonning eng qaynoq texnologiyasidan foydalanmaylik, xoh u ilg'or innovatsiya bo'lsin, xoh intellektual soha bo'lsin, har birining zamirida bizning milliy qadryatimiz, o'zbeklik sha'ni yotmog'i darkor. Rivojlanishni milliylik bilan uyg'unlashgan holda olib borish biznig o'zgacha va jahonga yangi andoza yo'limiz bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017.

⁹ Saidov, J. (2022). Barkamol avlodni tarbiyalashda markaziy osiyo mutafakkirlarining ma'naviy-ma'rifiy merosidan foydalanish. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(2), 65-71.

2. Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003.
3. Allayarov A., Amanov G'. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020.
4. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992. №2.
5. Saidov, J. (2022). Barkamol avlodni tarbiyalashda markaziy osiyo mutafakkirlarining ma'naviy-ma'rifiy merosidan foydalanish. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(2), 65-71.
6. Saidov, J., & Norqo'ziyev, S. (2023). Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari (Tarix va milliy g'oya fanlari misolida). Журнал истории и общества, (5).
7. Саидов, Дж. (2022). Madaniy meros obyektlarining 3 d modelini yaratishning ahamiyati (Jizzax vohasi misolida). Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана, 1(01), 34-37.